

BADIY MAKON KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY TALQINI

N. Yaxyayeva¹

Annotatsiya:

Badiy makon voqelikni yaxlit idrok etishni ta'minlovchi va asar kompozitsiyasini uyushtiruvchi, badiy obrazning badiy-g'oyaviy va falsafiy xususiyatlarini ochuvchi, badiy asar ichki hamda tashqi tuzilishini tashkil etuvchi har bir unsurning aloqaga kirishini ta'minlovchi adabiy-estetik kategoriya hisoblanadi. Asar qaysi tur va janrga mansubligidan qat'iy nazar muallif olamning zamomakon modelini yaratadi. Badiy makon asar zamiridagi ma'no-mazmun teranliklarining kashf etilishiga; tuyg'u, voqe-hodisa va obrazlarni mahorat bilan tasvirlanishida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: real va irreal makon, obyektiv va subyektiv makon, xolislik, universallik, sarhadilik va cheksizlik, aniqlik va nisbiylik, uzluklilik va davomiylilik, xronotop

doi: <https://doi.org/10.2024/wsyr2m44>

Ma'lumki, makon har qanday tizimdag'i elementlar to'plamidir. Biz buni aqlan tafakkur qila olamiz. Bu bizning nuqtai nazarimiz, makon haqida tasavvurimiz. Ammo bizning makon haqidagi fikrlarimizda biroz subyektivlik bor. Haqiqatan ham, bizni o'rab turgan olamni anglashga harakat qilganimizda, biz uni bilganimiz darajasida baholay olamiz, xolos. Aslida esa olam cheksiz va bizga, bizning istaklarimizga mutlaqo bog'liq emas. Xohlaymizmi, yo'qmi, ular biz ularga e'tiborimizni qaratganimizda qanday bo'lgan bo'lsa, shundayligicha qolaveradi. Shu bois, dunyo, olam chegaralari haqidagi fikrlarimiz, g'oyalarimiz bir tomonlama deb aytishimiz mumkin. Xuddi shunday bizning badiy voqelik to'g'risidagi o'y-fikrlamiz ham ma'lum darajada bir tomonlamadir. Makon esa voqelikning asosiy ko'rinishlaridan biridir. Odamzot uni qurshab turgan dunyoni o'rganishni boshlar ekan, aynan makonga, makonlarga duch keladi. Boshqacha qilib aytganda esa inson faoliyatida obyektiv olamni anglash birinchi navbatda uni o'rab turgan makonni tasavvur qilishning shakllanishidan boshlanadi. Makon inson tomonidan dastlab atrofidagi borliq sifatida idrok etiladi va bu tushuncha keyinchalik keng doiradagi makonga oid munosabatlarni ham qamrab oladi. Inson hayoti davomida makonda joylashuvi, harakatidagi yo'nalishi kabilar orqali makon bilan doimiy ravishda to'qnashadi. Inson muayyan makondan o'r'in olish bilan birga, zarur o'rinnlarda unga ta'sir ko'rsatadi, o'z navbatida, makon "o'zini makro va mikro koinot markaziga qo'yuvchi odam atrofida shakllanadi"². Makonning inson tafakkuri va xotirasidan o'r'in olishi ham ularning o'zaro aloqasi haqida ma'lumot beradi.

¹ Nigina Ibragim qizi Yaxyayeva, Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)

² Кубрякова Е.С. Язык пространства и пространство языка (к постановке проблемы) // Изв. РАН. Сер. лит. и языка, 1997. Т. 56. – №3. – С. 26.

Insonning hayoti davomida to‘plagan bilimlari, hamda xotira va tasavvurining faollashuvi hisobiga makon real mavjud xilqat sifatida tasavvur qilinishi ham mumkin. Makon va inson munosabatidagi bunday aloqa-bog‘lanish, shaksiz, tilda ham o‘z ifodasini topadi.

Olimlar makonning o‘ziga xos universal tabiat haqida turlicha fikr bildirib kelganlar. Ularning fikricha, bir tomondan, odam bor yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, makon real mavjud va obyektiv hajmlarga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u subyektivdir. Zero, har bir kishi makon, uzoqlik yoki yaqinlik o‘lchovi haqida o‘z tasavvurlariga ega. Ilmiy adabiyotlarda makonning borliqdagi boshqa hodisalar, jumladan, zamon bilan bog‘liqligi asoslangan; makonni qabul qilishning dualistik xarakteri va uning chegaralarga egaligi ta’kidlangan; makonning geografik, ijtimoiy, psixologik, mental va boshqa turlarining mavjudligi qayd qilingan¹. Masalan, A.F.Papina o‘zining “Matn: uning birliklari va global kategoriyalari” darsligida badiiy makonni matn kategoriyasi sifatida talqin qilib, uning 2 ta turini tasniflagan:

1. Real makon. 1.1 *Obyektiv makon* (ochiq – chiziqli / gorizontal oriyentatsiya / doiraviy istiqbol / kesishgan, chorrahali istiqbol / sektorli istiqbol, yopiq). 1.2. *Subyektiv* (konseptual) makon – insonning ichki dunyosini va tashqi moddiy dunyoni yaqqol namoyon etadi.

2. Irreal makon “yuqori – quyi”, “bu yerda – u yerda”, “o‘rmon – uy” o‘rtasida turli xildagi chegaralar, sarhadlarni yaratadi va h.k.²

Bundan anglashiladiki, makon juda keng tushuncha. M.V.Vsevolodovaning ta’kidlashicha, makon murakkab kategoriyalardan biri bo‘lib, zamonaviy tilshunoslik, adabiyotshunoslikning unga bo‘lgan ehtiyojiga qaramasdan, fanda haligacha u haqida aniq, strukturalangan tavsif yo‘q. Zero bu, atamaning noaniqligi, mavhumligidandir.³ Olima “makon kategoriyasi fizik (ontologik,) falsafiy (gnoseologik) va lingvistik jihatlarga ega” ekanligini ham ta’kidlab o’tadi.

Rus etnografi, yozuvchisi, leksikografi V.I.Dal’ning lug’atida makon so’ziga quyidagicha ta’rif berilgan: “cho’zilgan, tarqalgan, joy egallagan har bir narsaning holati; masofa, joy, kenglik va chuqurlik; uch o‘lchamdagи joy”. Lug’atda makonning barcha umumiyl xusiyatlari – kengligi, uzlukli va uzluksizligi haqida ma’lumotlar bo‘lib, ushbu ma’lumotlar qadimgi yunonlarning falsafaga oid ensiklopediya va qo’llanmalarida, faylasuflarining asarlarida ham tilga olinganligini aytib o’tish joizdir. Shu tariqa ushbu kategoriya falsafiy ilmlar terminologiyasiga dunyoqarashning nazariy shakllaridan biri sifatida kirdi. Biroq tafakkurning rivojlanish jarayonida makonning o‘zgarmas va bir ma’noli emasligi haqidagi g’oyalar yuzaga keldi.

Badiiy adabiyotga makon tushunchasi Yuriy Lotman va Mixail Baxtin orqali kirib kelgani va Moris Blanshoning ham bu sohadagi hissalari hech kimga sir emas. Makonning badiiy adabiyotga kirib kelishi 1970-yillarda hikoya mavzulari, hikoyadagi joy tavsiflari haqidagi muhokamalardan keyin boshlandi

¹ Попова М.И. Когнитивная основа пространственной модели временных отношений в современном английском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Иркутск, 1997; Рейхенбах Г. Философия пространства и времени / Пер. с англ. яз. д-ра филос. наук Ю.Б.Молчанова; общ. ред. акад. А.А.Логунова; Послесловие. –М.: Прогресс, 1985. – 343 с.; Симонян Т.А. Семантика пространственных атрибутов в свете когнитивного подхода: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2001.

² Папина А.Ф. Текст: его единицы и глобальные категории. – М.: Едиториал УРСС, 2002.

³ Всеволодова М. К вопросу о методологиях и методиках лингвистического анализа (на примере категорий пространственных, временных и причинных отношений) / Вестник Московского университета. Серия 9. Филология. – 2005. – № 2. – С. 9-34.

deyish mumkin. Ammo aslida, makon kategoriyasining konseptual kelib chiqishi qadimgi yunon falasafasiga borib taqaladi.¹

Faylasuflar tomonidan makon turli xil talqin qilingan: Platon uni *idish* deya ta'riflagan bo'lsa, Demokrit *bo'shliq*, Aristotel esa *topos* (joy) deb atagan. Aristotelning fikricha, makonda o'rin almashinuv harakat o'zgarishining asosiy turi bo'lib, qolgan barcha turlarning sharti hisoblanadi. Makon kategoriyasining zamonaviy talqini Nyutonning modda tushunchasidan, Leybnitsning nisbiy yondashuvidan va Dekartning metafizik konsepsiyasidan Kant va Gegelning dialektik qarashlarigacha o'zgarib, rivojlanib keldi. XX asrga kelib makon tushunchasi bir qator olimlar (Eynshteyn, Vernadskiy, Trubetskoy) ning ilmiy ishlarida ham uchray boshladi. Tahlillarimizga ko'ra makon kategoriyasi barcha ilm sohalarida o'rganilgan. Fizika-matematika sohasidagi makon haqidagi falsafiy qarashlar amerikalik faylasuf olim A.Gryunbaumning, tarixiy, falsafiy va tabiiy fanlardagi makon tasniflari R.Karnap, G.Reyzenbax, hamda rus olimlari M.D.Axundova va P.Gaydenkoning falsafiy ruhdagi asarlarida uchraydi. Tilshunos va adabiyotshunos olimlar ham badiiy makon haqidagi qarashlarini o'zlarining ilmiy ishlarida bayon etib ketganlar. Masalan, S.V.Kashirina o'zining "adabiy asarni anglashda badiiy makonning roli"² maqolasida, badiiy makonning adabiyotshunoslikda tahlil qilinadigan barcha turlariga izoh berib o'tgan. T.A.Simonyan o'zining fan nomzodligi uchun olib borgan tadqiqot ishida ("Семантика пространственных атрибутов в свете когнитивного подхода") makonni qabul qilishning dualistik xarakteri va uning chegaralarga egaligini ta'kidlagan; makonning geografik, ijtimoiy, psixologik, mental va boshqa turlari mavjudligini aytib o'tgan. Badiiy makon haqidagi qarashlarda, shubhasiz, M.M.Baxtinning xizmatlari juda kattadir. U makon va zamon tushunchalarini o'zaro uyg'unlashtirib, yangi termin – xronotop ("xronos" – vaqt, "topos" – joy)ni fanga olib kirdi. Olim ularning eng muhim xususiyatlarini jamlashtirarkan, makon va zamon bir-biridan alohida holda bo'lmasligini, ya'ni ajralmas tushunchalar ekanligini izohlab bergen.

Makon kategoriyasining turli sohalardagi tahlillari uning asosiy xususiyatlari to'g'risida yanada chuqurroq mushohada yuritishga undaydi: 1) makon borliqning mavjudlik shakli; 2) makon tuzilishi deganda bir-biriga bog'liq obyektlar joylashuvi tushuniladi; 3) makon va zamon tushunchalari bir-biriga bo'liq va ajralmasdir; 4) makonning asosiy xususiyatlari bo'lib xolislik, universallik, sarhadilik va cheksizlik, aniqlik va nisbiylik, uzluklilik va davomiyliklar hisoblanadi.

Badiiy asar olami hamisha u yoki bu darajada, unda tasvirlangan makon kabi shartlidir. Makonning shartliligi asarda muallifning g'oyalari, niyati va badiiy uslubiga muvofiq aks ettirilgan bo'ladi. Haqiqiy makonning aksi bo'lgan holda badiiy makon, metaforaning asosiy qismi sifatida, uning jismoniy tabiatini haqidagi g'oyani saqlab qoladi. Badiiy makon adabiy-estetik kategoriya sifatida asar voqealari sodir bo'lgan joyni anglatadi. Qahramonlar shu makonda harakatlanadilar, ya'ni tug'iladilar, yashaydilar va vafot etadilar. Yozuvchining ijodiy niyatiga ko'ra asar uchun makon va zamon tanlanadi, sababi adabiy asar real hayotning muayyan qisminigina badiiy ifoda etadi. "Inson tafakkurida olam

¹ Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 250-bet

² С.В.Каришина. Роль художественного пространства в постижении литературного текста. - Вестник Огу №9/Сентябрь '2006 Часть 1

mayjudligi turfa ranglarda ifodalananadi. Ko'plab predmetlar, obyektlar inson idrokida dunyoning murakkab makon tasvirini yaratadi"¹.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Всеволодова М. К вопросу о методологиях и методиках лингвистического анализа (на примере категорий пространственных, временных и причинных отношений) / Вестник Московского университета. Серия 9. Филология. – 2005. – № 2. – С. 9-34.
- [2]. Философия: Энциклопедический словарь. – М.: Гардарики. Под редакцией А.А. Ивина. 2004./https://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy
- [3]. Кубрякова Е.С. Язык пространства и пространство языка (к постановке проблемы) // Изв. РАН. Сер. лит. и языка, 1997. Т. 56. – №3. – С. 26.
- [4]. Папина А.Ф. Текст: его единицы и глобальные категории. – М.: Едиториал УРСС, 2002.
- [5]. Попова М.И. Когнитивная основа пространственной модели временных отношений в современном английском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Иркутск, 1997; Рейхенбах Г. Философия пространства и времени / Пер. с англ. яз. д-ра филос. наук Ю.Б.Молчанова; общ. ред. акад. А.А.Логунова; Послесловие. –М.: Прогресс, 1985. – 343 с.;
- [6]. Симонян Т.А. Семантика пространственных атрибутов в свете когнитивного подхода: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2001.
- [7]. С.В.Каршина. Роль художественного пространства в постижении литературного текста. - Вестник Огу №9/Сентябрь`2006 Часть 1
- [8]. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 250-bet
- [9]. To'rayeva B.B. Zamonaliv romanlarda xronotop poetikasi monografiyasi. – Toshkent, 2022. – 36-bet
- [10]. Yaxyayeva, N. (2023). Chingiz Aytmatov asarlarida badiiy makon konsepsiysi. Interpretation and Researches, 1(7).
- [11]. Yaxyayeva, N. Asar badiiy olamini yaratishda badiiy makon kategoriyasining adabiy-estetik vazifasi. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 10, 2023. – 219-bet

¹Философия: Энциклопедический словарь. – М.: Гардарики. Под редакцией А.А. Ивина. 2004./https://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy